



O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Sobirova Nigora Baxtiyor qizi

Bank - moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, uning stavkasi, imtiyozlar, soliq bazasini hisoblash, to'lash tartibi, soliq summasini qanday hisoblash va avvalgi yillar bilan solishtirma jadvallar xususida fikrlar ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: soliq, yer, yer solig'i, mablag', stavka, soliq bazalari, soliq to'lovchilar, ko'chmas mulk.

Kirish. O'zbekistonda davlat byudjetini shakillantirishda soliqlarning o'rni katta hisoblanadi. Davlat soliqlardan o'z vakolatiga kiruvchi vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida foydalanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan Soliq kodeksida 9ta soliq turi mavjud bo'lib, ulardan har birining ulushi byudjet parametrlarida aks ettiriladi. Misol uchun birgina jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini ko'rib chiqsak.

Yer solig'i bu yerdan foydalanganlik uchun davlatga majburiy to'lanadigan soliq turi. U yerga mulkchilikning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Jahonda deyarli barcha mamlakatlarda davlat yeridan foydalanganlik uchun byudjetga soliq undiriladi. O'zbekiston Respublikasida yer solig'I to'lovchilari yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Soliq kodeksining 62bob 433-moddasida Yer solig'i to'lovchilari keltirilgan unga ko'ra : Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i mulk huquqini, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari to'laydilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi



Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara to'lovi yer solig'iga tenglashtiriladi. Meros uchun berilgan uy joy, inshoot va imoratlar meros huquqi berilgan merosxo'rdan undiriladi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda yer solig'i to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda xalq deputatlari tegishli viloyat, shahar va tuman Kengashlarining budjetiga tushadi.

To'lovlarning bir qismi respublika miqyosidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining budjetida markazlashtiriladi. Bunday ajratmalarning me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yer solig'i to'lovlaridan tushgan mablag' eng avvalo yerlarni muhofaza qilishni yaxshilashga, yerlarning unumdorligini oshirishga, irrigatsiya va melioratsiya ishlariga, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilarni, shu jumladan ijarachilarni rag'batlantirishga, yer tuzish ishlarini tashkil etishga, Davlat yer kadastri yuritish va hududni ijtimoiy rivojlantirishga sarflanadi. Respublikasi Soliq kodeksining 434 moddasida soliq solish obekti keltirilgan bular:

- 1) dehqon xo'jaligini yuritish uchun va yakka tartibda uy joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- 2) bog'dorchilik, uzumchilik va polizchilikni yuritish uchun berilgan shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- 3) xizmat yuzasidan berilgan cheklar;
- 4) meros bo'yicha xadiya qilish yoki sotib olish natijasida uy joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi ham o'tgan yer uchastkalar;
- 5) qonunhujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib sotib olingan yer uchastkalari;
- 6) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'chmas mulkka bo'lgan xuquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni soliq bazasidir.



Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i imtiyozlari:

- “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlari, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar;
- urush nogironlari va qatnashchilari;
- I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar;
- yolg‘iz pensionerlar;
- boquvchisini yo‘qotgan ko‘p bolali oilalar;
- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar;
- energiya resurslarining amaldagi tarmoqlaridan to‘liq uzib qo‘yilgan turar joylarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanadigan energiya manbalari o‘rnatilgan oydan e‘tiboran uch yil muddatga.

Soliq imtiyozlari yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organda ro‘yxatdan o‘tkazgan jismoniy shaxslarga beriladi. Soliq imtiyozlari soliq to‘lovchining tanlovi bo‘yicha faqat bitta yer uchastkasiga beriladi.

Soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan shaxslar soliq imtiyozlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

Kalendar yil soliq davri hisoblanadi. Yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan e‘tiboran jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Soliq davri uchun soliqni to‘lash jismoniy shaxslar tomonidan 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Tahlil. Yer solig'i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Quyidagi jadvalda davlat byudjeti daromadlarida yer solig'i ulushini yillar kesimida keltirib o‘tamiz.



Yillar Ko'rsatkichlar	1-chorak	6-oylik	9-oylik	yillik
2020	612,6	1093,7	1640,1	2386,7
2021	825,8	1780,1	2825,6	4082,8
2022	1113,7	2550,8	3880,9	5305,9
2023	1425,1	3066,4	4674,7	6890,1
2024	1853,4	4022,1		

Byudjet daromadlari 2020-yilda 132,9 trillion so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 18,5 foizga oshdi. Bunda yer solig'i deyarli 2019-yil darajasida saqlanib qoldi.

2021-yil birinchi yarimyllikda byudjet daromadlari 28,7% -79,4trln so'mgacha o'sdi. Bundan jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i 160,6 mlrd so'mga oshdi.

2022-yilda soliq organlari tomonidan davlat byudjetiga 148,4 trln so'm soliq tushumlari ta'minlangan. Bu ko'rsatgich 2021-yilga nisbatan 16% ko'pni tashkil qilgan. Bundan yer solig'i 5,3 trln so'm undirilib avvalgi yilga nisbatan 1,2 trln so'mga ya'ni 30% oshgan.

2023-yilda davlat byudjetida soliq tushumlari 165,9trillion so'mni tashkil qildi bundan yer solig'i salkam 7 trillion so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan oshgan.

2024 yilning II choragi davomida davlat budjetiga soliq tushumlari qariyb 45,5 trln so'mni tashkil etdi. Bu – o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,4 foizga ko'p. II chorakda barcha soliq turlari bo'yicha o'sish kuzatilgan. Bundan yer solig'i 2,2 trln so'm bo'lib, 32,1 %o o'sgan.

Xulosa. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i haqida yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, davlat byudjetiga soliqlardan tushum yillar sayin oshgan bo'lsa oshganki kamaymagan. Soliq tushumlari hajmi soliq yukining oshishi hisobiga emas, balki yashirin iqtisodiyotdan tushgan mablag'larni legallashtirish va soliq tizimini takomillashtirish hisobiga oshgan desak bo'ladi. Buni



birgina soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning ixtiyoriy to'lanishi darajasida ham ko'rsak bo'ladi. Bu ko'rsatkich darajasi yer solig'i bo'yicha 2023-yil yanvar-iyun oylarida 93%ni tashkil qilgan bo'lsa, yanvar-sentyabr oylariga kelib 94%ni tashkil qilgan. Demak mamlakatimizda olib borilayotgan to'g'ri soliq siyosati o'z samarasini bermogda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi –T.: «Norma» 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 30.04.1998y
3. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.:O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2009.
4. Vahobov A.V, Jo'rayevA.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik.–T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019.
5. Jo'rayevA.S., UsmanovaM.S., Amanov A.M., Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik, T.: “Iqtisod-moliya”, 2019.
6. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
7. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
8. <http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi
9. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
10. <http://uz.wikipedia.org>